



“KELAJAK SOATI” MASHG‘ULOT ISHLANMALARI

“Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

1–4-sinf o‘quvchilari uchun 4 haftalik mashg‘ulotlar to‘plami

1-hafta - “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

2-hafta - “Vatan qayerdan boshlanadi?”

3-hafta - “Vatanimning go‘zal joylari”

4-hafta - “Men - O‘zbekistonlikman!”

1-HAFTA “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

Mashg‘ulot maqsadi

TA'LIMIY	O‘quvchilarga videokontent orqali “Vatan” tushunchasini oila va minnatdorlik misolida, shuningdek xalq birligining kuchini “Bir dasta cho‘p” hikoyati orqali ochib berish; yagona Vatan farzandlari birlashganda kuchli bo‘lishini anglatish.
TARBIYAVIY	O‘quvchilarda oilaga va katta yoshdagilarga hurmat, minnatdorlik hissini, shuningdek yakdillik va hamjihatlik tuyg‘usini video obrazlar orqali his-tuyg‘u darajasida shakllantirish.
RIVOJLANTIRUVCHI	Videokontentni tahlil qilish, ko‘rganlarini og‘zaki va amaliy mashqlar (cho‘plar sinovi, rasm-kompozitsiya) orqali ifodalash, jamoada ishlash va ijodiy tasavvurni rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar

- Videokontent asosida axborotni kuzatish, tushunish va o‘z so‘zlari bilan ifodalay olish;
- Oila va yaqinlariga nisbatan minnatdorlik hissini anglash va ifodalash;
- Yakdillik va hamjihatlik kuchini amaliy mashq (cho‘plar sinovi) orqali his qilish va tushuntirib bera olish;
- Guruh/jamoa bo‘lib ishlash, umumiy natijaga hissa qo‘shish ko‘nikmasini namoyon etish;
- O‘z fikrini og‘zaki, yozma va vizual (rasm, kompozitsiya) shakllarda ifodalay olish;



KERAKLI JIHOZLAR

- Elektron doska
- 1- va 2-videokontent (yoki ularning matnli ssenariysi)
- Devorga ilinadigan katta “O‘zbekiston” so‘zi yozilgan plakat

- Har bir juftlik/kichik guruh uchun bittadan ingichka tayoqcha (yog‘och tayoqcha, somon yoki qalam) hamda bir dasta bog‘lab qo‘yilgan tayoqcha (“Birlik kuchi” mashqi uchun)
- Qaychi va yelim/skotch (rasmdan element kesib, umumiy plakatga yopishtirish uchun)
- 3–4-sinf o‘quvchilari uchun jumla to‘ldirish varaqchalari
- Rangli qalamlar

Mashg‘ulot ishlanmasi

3 daqiqa | TASHKILIY QISM

O‘QITUVCHI: (O‘quvchilar bilan salomlashadi.) Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Kecha biz mamlakatimizning eng ulug‘ bayrami 1-sentabr-O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik kunini nishonladik! 2-sentabrda esa –“ Bilimlar kuni”ni. Sizlarni ushbu quvonchli kunlar — Mustaqillik kuni va Bilimlar kuni bilan chin qalbidan tabriklayman! Bugun sizlar yangi o‘quv yiliga qadam qo‘ydingiz. Oldinda sizlarni yangi kitoblar, qiziqarli mashg‘ulotlar, yangi bilimlar, do‘stlar va ajoyib kashfiyotlar kutmoqda. Barchangizga o‘qishda omad va quvonch tilayman!

(O‘quvchilar doira shaklida turishadi) -Hammamiz bir doira bo‘lib turib, bir-birimizga yaxshi kayfiyat ulashamiz. Bir-biringizga qarab, biror yaxshi tilak ayting. Bugun sizlar bilan juda muhim va yoqimli mavzuda Vatanimiz O‘zbekiston haqida gaplashamiz. Tayyormisiz?

O‘QUVCHILAR: O‘qituvchining savoliga “Ha, tayyormiz!” deb javob beradilar. Doira shaklida turadilar, sheriklariga yaxshi tilak bildiradilar va bir-biriga tabassum bilan qaraydilar.

3 daqiqa | MOTIVATSIYA (Aqliy hujum)

O‘QITUVCHI: (Dorskaga yirik harflar bilan “O‘zbekiston” so‘zini yozadi.) -Mana, doskaga bir so‘z yozdim - O‘zbekiston. Diqqat bilan qarang. Ayting-chi, bu so‘zni eshitganda ko‘z oldingizga nima keladi?

O‘QUVCHILAR: Qo‘l ko‘tarib, o‘ylagan narsalarini aytishadi (bayroq, oila, uy, tabiat, do‘stlar va h.k.).

O‘QITUVCHI: -Ajoyib fikrlar bo‘ldi! Endi shu savolga javobni bitta video orqali ko‘ramiz. Diqqat bilan tomosha qiling, videoda nimalar aks etayapti?

5 daqiqa | 1-VIDEO NAMOYISHI

1-sinflar uchun videoning nomi: “Prezident sovg‘asi”

Maktabga endigina qadam qo‘ygan 1-sinf o‘quvchisining oilasi bilan samimiy suhbatlari aks ettiriladi. Bola maktabdan uyga onasi bilan qaytib keladi va bobosi hamda buvisi bilan quvonch bilan salomlashadi. Ular bolaning maktabdagi ilk taassurotlari, o‘rtoqlari va yangi o‘quvchilik hayoti haqida suhbatlashadilar. Suhbat davomida bola bobosi va buvisining uni yaxshi ko‘rishini so‘raydi. Shuningdek, unga maktabga qabul qilingani munosabati bilan berilgan sovg‘ani faxr bilan ko‘rsatadi. Bola sovg‘ani ustoziga va sinfdoshlari nomidan rahmat aytganini aytadi.

Bobo esa bolaning e‘tiborini minnatdorlikning muhim jihatiga qaratib, sovg‘ani yuborgan insonlarga ham rahmat aytish kerakligini tushuntiradi. Bobo bolaning yaxshi o‘qishi, bilim olishi va a‘lo natijalarga erishishini minnatdorlikning eng yaxshi ifodalaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Bola esa yaxshi o‘qishga va‘da beradi hamda maktabda o‘ziga yoqayotgan jihatlar haqida hayajon bilan gapira boshlaydi.

O‘QUVCHILAR: Videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.

Eslatma: Video mavjud bo‘lmasa: o‘qituvchi ssenariyni o‘zi ifodali qilib hikoya qiladi

4 daqiqa | 1-VIDEO MUHOKAMASI (Savol-javob)

O‘QITUVCHI: -Bola bobosi va buvisiga nimalar haqida gapirib berdi?

-Bola maktabga borishdan qanday taassurot oldi?

-Bobo nega bolaga “zo‘r o‘qib, a‘lo baholar ol” dedi?

-Sizningcha, yaxshi o‘qish orqali qanday qilib minnatdorlik bildirish mumkin?

-“Vatan” tushunchasi oila va maktab bilan qanday bog‘liq?

O‘QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi: video mazmunini eslashadi, o‘z tasavvurlarini aytishadi, so‘nggi savolga o‘z fikrlarini bildirishadi.

2–4-sinflar uchun video - “Men O‘zbekistonni qanday ko‘raman?” (4 daqiqa)

5 daqiqa | 1-VIDEO NAMOYISHI

Sinf doskasida faqat bitta so‘z yozilgan “O‘zbekiston.” O‘qituvchi Dilnoza opa bolalardan so‘raydi: bu so‘z ko‘z oldilariga nimani keltiradi? Zilola oilasini, Aziz esa quyosh, bog‘ va sportni chizadi. Keyin bilim (kitob) va orzular (yulduzcha, raketa) ham qo‘shiladi. Doska atrofida rangli kompozitsiya shakllanadi. Shundan so‘ng doskadagi rasmlar jonlanadi: quyosh nur sochadi, daraxt yashil bog‘ga aylanadi, kichkina uy mahallaga aylanadi, kitobdan harflar uchadi, futbol to‘pi stadionga aylanadi, raketa kelajak texnologiyalariga aylanadi. Yakunida Aziz va Zilola: “Men ham O‘zbekistonman!” deb aytishadi, barcha bolalar birgalikda: “BIZ - O‘ZBEKISTON FARZANDLARIMIZ!” deb ovoz beradilar.

Videoda Zilola va Aziz ismli bolalar O‘zbekiston haqida o‘ylaganlarini rasm qilib chizishadi.

O‘QUVCHILAR: Videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.

Eslatma: Video mavjud bo‘lmasa: o‘qituvchi ssenariyni o‘zi ifodali qilib hikoya qiladi

O‘QITUVCHI: - Zilola va Aziz nimalarni chizishdi? Eslay olasizmi? Endi sizlarga savol: O‘zbekiston deganda sizning ko‘z oldingizga nimalar keladi? Video oxirida nega bolalar ‘Biz - O‘zbekiston farzandlarimiz!’ deb aytishdi? Nima uchun shunday deyishdi, deb o‘ylaysiz?

O‘QUVCHILAR: Navbat bilan javob berishadi: video mazmunini eslashadi, o‘z tasavvurlarini aytishadi, so‘nggi savolga o‘z fikrlarini bildirishadi.

O‘QITUVCHI: -Zo‘r muhokama bo‘ldi! Endi ikkinchi videoni ko‘ramiz. Diqqat bilan kuzating: Bobo nabiralariga nimani isbotlamoqchi va nega?

O‘QITUVCHI: *1–4-sinflar uchun 2-video - “Bir dasta cho‘p - birlik kuchi” (4–5 daqiqa)*

Qadimiy qishloqda yashovchi Bobo va uning uch nabirasi doim kim kuchli, kim yaxshiroq ish qiladi, deb bir-biri bilan tortishib qolishadi. Buni ko‘rgan Bobo ularga sinov o‘tkazadi: avval har biriga bittadan ingichka cho‘p beradi - bolalar ularni osongina sindirishadi. Keyin Bobo singan cho‘plarni yaqin kulolning yonib turgan pechiga tashlaydi, ular ko‘z o‘ngida tezda yonib ketadi. Shundan so‘ng Bobo bir nechta cho‘pni yig‘ib, mahkam bog‘lab bir dasta qiladi va uni nabiralariga sindirishni taklif etadi - ammo hech biri kuchi yetmay, dastani sindira olmaydi, hatto u pech og‘ziga ham sig‘maydi. Bobo tushuntiradi: “Bir cho‘pni har kim sindira oladi, uni olov ham tezda yo‘q qiladi. Ammo birlashgan cho‘plarni sindirish qiyin, hatto olovning o‘zi ham uni bir zumda yenga olmaydi.” Buni anglagan nabiralar bir-biriga yordam berib, birga ishlay boshlaydilar va yolg‘iz uddalab bo‘lmagan ishni birgalikda amalga oshiradilar. Video yakunida Bobo aytadi: “Xalq ham shunday. Birligimiz - kuchimiz. Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va yangi kelajak yaratamiz!”

Eslatma: Videolar mavjud bo‘lmasa, o‘qituvchi ushbu ssenariylarni sinfda qisqacha og‘zaki hikoya qilib berishi yoki fototasvirlar bilan boyitib taqdim etishi mumkin. Ikkinchi video sinfda jonli sahna sifatida ham qayta ijro etiladi.

O‘QUVCHILAR: Videoni diqqat bilan tomosha qiladilar.

O‘QITUVCHI: -Bobo nega nabiralariga avval bittadan, keyin bir dasta cho‘p sindirishni taklif qildi? Nima uchun bitta cho‘pni sindirish oson bo‘ldi-yu, bir dastani sindirib bo‘lmadi? Bolalar birga ishlaganda nimaga erishdilar? Bu voqea xalqning birligi haqida sizga nimani angladi?

O'QUVCHILAR: Fikrlarini bildiradilar: “Chunki birlashganimizda kuchliroq bo‘lamiz”, “Yolg‘iz qilib bo‘lmagan ishni birga qilib bo‘ladi”, “Xalqimiz ham cho‘plar kabi birlashsa, uni hech kim yenga olmaydi” kabi javoblar beradilar.

1-topshiriq: “Birlik kuchi” - interfaol cho‘plar mashqi

O'QITUVCHI: “Endi videoda ko‘rgan Boboning sinovini o‘zimiz ham sinab ko‘ramiz! Har bir juftlikka yoki kichik guruhga bittadan ingichka tayoqcha (yog‘och tayoqcha, somon yoki qalam) beraman. Uni ehtiyotkorlik bilan sindirib ko‘ring. Endi esa sizga bir dasta bog‘langan tayoqcha beraman. Shuni ham sindirib ko‘ring-chi! Nega bitta tayoqchani sindirish oson bo‘ldi-yu, dastani sindirib bo‘lmadi?”

1–2-sinf o‘quvchilari qisqa jumla bilan og‘zaki javob beradi: “Chunki birga bo‘lganimizda kuchliroqmiz.”

3–4-sinf o‘quvchilari esa varaqqa “Men sinfdoshlarim bilan birga bo‘lsam, _____ ishni qila olaman” jumlasini to‘ldirib yozadi.

O'QUVCHILAR: 1–2-sinf o‘quvchilari juftlikda tayoqcha va dastani sindirish mashqini bajaradilar hamda og‘zaki javob berishadi. 3–4-sinf o‘quvchilari mashqni bajarib, o‘z jumllalarini varaqqa yozadilar, ixtiyoriylar ovoz chiqarib o‘qib beradi.

2-topshiriq: “O‘zbekiston” so‘zi kompozitsiyasi

O'QITUVCHI: (Sinf devoriga katta “O‘zbekiston” so‘zi yozilgan plakat iladi.)

- Endi har biringiz o‘z rasmingizdan kichik bir elementni - masalan, quyoshcha, gulcha yoki yulduzchani - ehtiyotlik bilan kesib oling va uni shu yozuv atrofiga yopishtiring. Videodagidek, hammamiz birga bitta katta rangli kompozitsiya yasaymiz!

O'QUVCHILAR: O‘z rasmidan bir elementni kesib olib, umumiy plakat atrofiga yopishtiradilar.

 3 daqiqa | TAQDIMOT

O'QITUVCHI: Kim birgalikda tayyorlagan plakatimizni taqdimot qilib beradi?

O'QUVCHILAR: 4–5 nafar o‘quvchi tayyorlagan plakatdagi tasvirlar haqida o‘z fikrlarini aytib, tasvirlab beradi.

 4 daqiqa | YAKUNLOVCHI QISM (Refleksiya)

O'QITUVCHI: -Bugun biz juda muhim mavzuni ko‘rib chiqdik. Endi birga xulosa chiqaraylik. O‘zbekistonda qancha millat yashamasin, barchamiz bitta yagona Vatan farzandlarimiz.

-Yagona Vatan farzandi ekaningizni bugundan boshlab qanday amallaringiz bilan namoyon qilasiz? Sinfimizda turli millat vakillariga hurmatni qanday ko‘rsatishimiz mumkin?

-Agar do‘stingiz boshqa millat vakili bo‘lsa, unga hurmatingizni qanday ko‘rsatasiz?

-Bizning birligimizni mustahkamlash uchun har birimiz nima qila olamiz?

Refleksiya (qo‘shimcha savollar)

O‘QITUVCHI: -Bugungi mashg‘ulotda sizga eng yoqqan yoki eng ta’sir qilgan lahza qaysi bo‘ldi?

- Nima uchun?

-Agar “O‘zbekiston” so‘zini yana bir bor rasmda ifodallasangiz, unga nimalarni qo‘shgan bo‘lardingiz?

Bugungi mashg‘ulotdan so‘ng Vataningiz uchun qanday yaxshi ish qilishni xohlaysiz?

Uyga vazifa

O‘QITUVCHI: 1–4-sinf o‘quvchilari: uyda oila a’zolari bilan “Vatan qayerdan boshlanadi?” mavzusida og‘zaki suhbatlashib kelishini va shu haqda bitta kichik rasm chizib kelishini aytadi.